

TA'LIM JARAYONIDA METODIK TA'MINOTNI RIVOJLANTIRISH YO'LLARI

Berdiyeva Lobar Norqobulovna
Axborot texnologiyalar va Menejment universiteti,
Pedagogika kafedrası katta o'qituvchisi

ANNOTATSIYA. MDH mamlakatlari pedagogik ilmida metodik ta'minot – bu nafaqat o'quv materiallarining majmuasi, balki ta'lim jarayonida o'quvchilarning kognitiv, emotsional va obrazli tafakkurini shakllantirishga xizmat qiluvchi ko'rgazmali-didaktik vositalar tizimi sifatida talqin qilinadi. Ushbu yondashuv metodik ta'minotning faqat informatsion emas, balki kognitiv va kreativ komponentlarini ham o'z ichiga olishini ko'rsatadi. Ushbu maqolada ta'lim jarayonida metodik ta'minotini rivojlantirish yo'llari borasida fikr-mulohazalar yuritilgan.

KALIT SO'ZLAR. O'yin va ko'rgazmali vositalar, didaktik o'yinlar, bola ruhiyati, boshlang'ich sinf o'quvchilari, tafakkur, yoshga moslik va rivojlantiruvchanlik, kognitiv rivojlanishi.

WAYS TO DEVELOP METHODOLOGICAL SUPPORT IN THE EDUCATIONAL PROCESS

Berdiyeva Lobar Norqobulovna
University of Information Technologies and Management,
Senior Lecturer, Department of Pedagogy

ABSTRACT. In the pedagogical science of CIS countries, methodological support is interpreted not only as a set of educational materials but also as a system of visual and didactic tools that serve to shape students' cognitive, emotional, and imaginative thinking in the educational process. This approach indicates that methodological support includes not only informational but also cognitive and creative components. This article discusses ways to develop methodological support in the educational process.

KEYWORDS. Play and visual aids, didactic games, child psychology, primary school students, thinking, age-appropriateness and developmental orientation, cognitive development.

СПОСОБЫ РАЗВИТИЯ МЕТОДОЛОГИЧЕСКОЙ ПОДДЕРЖКИ В ОБРАЗОВАТЕЛЬНОМ ПРОЦЕССЕ

Бердиева Лобар Норкобуловна

Университет информационных технологий и управления,

Старший преподаватель кафедры педагогики

АННОТАЦИЯ. В педагогической науке стран СНГ методическое обеспечение трактуется не только как совокупность учебных материалов, но и как система наглядно-дидактических средств, служащих формированию познавательного, эмоционального и образного мышления учащихся в образовательном процессе. Этот подход указывает на то, что методическое обеспечение включает в себя не только информационный, но и когнитивный и креативный компоненты. В данной статье рассматриваются пути развития методического обеспечения в образовательном процессе.

КЛЮЧЕВЫЕ СЛОВА. Игровые и наглядные средства, дидактические игры, детская психология, учащиеся начальных классов, мышление, возрастная адекватность и развивающая направленность, когнитивное развитие

MDH mamlakatlarida o'yin va ko'rgazmali vositalardan foydalanish masalasiga oid tadqiqotlar ham keng ko'lamli ilmiy asosga ega bo'lib, bu borada psixologiya va pedagogika fanining ilg'or nazariy qarashlari shakllangan. Jumladan, taniqli rus olimi V.V. Davidov o'yin faoliyatini bola tafakkurining shakllanishi va rivojlanishida asosiy metod sifatida e'tirof etadi. Uning fikricha, o'yin bolada real hayotdagi ijtimoiy munosabatlar modelini yaratadi, bu esa bola tafakkurining mantiqiy va tushunchaviy bosqichlarga o'tishini ta'minlaydi. Davidovning didaktik o'yinlar haqidagi yondashuvi shundan iboratki, o'yin orqali

bola faqatgina narsalarni o'rganmaydi, balki ularning mohiyatini anglaydi va ularga nisbatan reflektiv yondasha oladi¹. Shu nuqtai nazardan qaraganda, Davidov o'yinni bolaning kognitiv rivojlanishida intellektual faollikni shakllantiruvchi asosiy vosita sifatida ko'radi.

Yana bir muhim tadqiqotchi – L.A. Venger o'z izlanishlarida ko'rgazmali o'yinlarning bola psixikasiga, xususan, uning idrok, tasavvur va tafakkur kabi psixik funksiyalarining shakllanishiga bevosita ta'siri borligini isbotlaydi. Vengerning fikricha, vizual obrazlar asosida qurilgan o'yin faoliyati bolaga nafaqat predmetni ko'rish, balki uni anglash, taqqoslash, umumlashtirish va yangi obrazlar yaratish imkonini beradi². Bu jarayon, o'z navbatida, bola tafakkurining struktural elementlarini tashkil etadi va fikrlashning vizual-mantiqiy shakliga o'tishda muhim asos bo'lib xizmat qiladi. Venger ta'kidlashicha, ayniqsa boshlang'ich sinf yoshidagi bolalar uchun ko'rgazmalilik va obrazli ifoda shakllari orqali berilgan bilimlar o'zlashtirish darajasi yuqori bo'ladi, chunki bu yoshda obrazli tafakkur yetakchi rol o'ynaydi.

Umuman olganda, Davidov va Vengerning qarashlari o'zaro mazmunan uzviy bog'liq bo'lib, ularning yondashuvlari didaktik o'yinlar va ko'rgazmali vositalarning bola rivojidagi o'rni va ahamiyatini chuqur tahlil qiladi. Bu esa boshlang'ich ta'lim jarayonida o'yin asosidagi metodlarning, ayniqsa vizual vositalar bilan boyitilgan metodlarning samaradorligini oshirish zarurligini ko'rsatadi.

O'zbekistonlik pedagoglar orasida boshlang'ich ta'limda o'yinlar va ko'rgazmali vositalardan foydalanish masalasiga chuqur va tizimli yondashuvlar mavjud bo'lib, bu boradagi ilmiy izlanishlar ushbu metodlarning kognitiv, affektiv va psixomotor rivojlanishdagi o'rnini aniqlashga qaratilgan.

Jumladan, pedagog olimi M. Taxtaxodjayeva o'z tadqiqotlarida didaktik o'yinlarning boshlang'ich sinf o'quvchilari tafakkurini faollashtirishdagi rolini chuqur tahlil etadi. Uning fikricha, o'yinlar orqali o'quvchilarda mustaqil fikrlash,

¹Давыдов В.В. Проблемы развивающего обучения: Опыт теоретического и экспериментального психологического исследования. – М.: Педагогика, 1986. – С. 74–82.

²Венгер Л.А. Психологические проблемы обучения дошкольников. – М.: Просвещение, 1976. – С. 112–123.

kuzatish, muammoli vaziyatni tahlil qilish, yechim topish va mantiqiy fikr yuritish ko'nikmalari shakllanadi. U ayniqsa, tafakkur jarayonining erkinlik va ijodiylikka yo'naltirilgan shakllari didaktik o'yinlar muhitida eng samarali rivojlanishini ta'kidlaydi³. U, shuningdek, o'yin faoliyatining ijtimoiy kommunikatsiya va irodaviy sifatlar rivojiga ham ijobiy ta'sir ko'rsatishini asoslab beradi.

Professor Sh. Munavvarov esa ko'rgazmali vositalardan foydalanishning nazariy-metodik asoslarini ishlab chiqib, ularni obrazli, tahliliy va assotsiativ fikr yuritish mexanizmlarini shakllantiruvchi vosita sifatida tavsiya qiladi. Uning izlanishlarida ta'limda ko'rgazmalilik nafaqat axborot yetkazish vositasi, balki tafakkurni idrok darajasidan tahlil va umumlashtirish bosqichigacha olib chiquvchi didaktik poydevor sifatida qaraladi⁴. Munavvarov ta'kidlaydiki, boshlang'ich sinf o'quvchilarida vizual asosdagi fikrlashni rag'batlantirish uchun ko'rgazmali materiallar estetik va funksional jihatdan uyg'un bo'lishi lozim.

Zamonaviy pedagog olim Bekzod Xodjayev esa didaktik o'yinlar va ko'rgazmali vositalar integratsiyasining yangi bosqichini taklif etadi. U o'z tadqiqotlarida o'yin faoliyatining ijtimoiy faollik, reflektiv tafakkur va o'zini baholash ko'nikmalarini shakllantirishdagi o'rnini ochib beradi. Ayniqsa, ko'rgazmali vositalarni interaktiv ta'lim muhitida qo'llash orqali ta'limning samaradorligini oshirish g'oyasi B.Xodjayev konsepsiyasining markazida turadi. Unga ko'ra, har bir o'yin elementi o'quvchining bilish faoliyatiga bevosita ta'sir ko'rsatishi va uning bilim olish motivatsiyasini kuchaytirishi lozim⁵.

Yuqoridagi mulohazalar asosida boshlang'ich ta'limda o'yinlar va ko'rgazmali vositalardan foydalanishga oid quyidagi didaktik talablarni ajratib ko'rsatish mumkin:

Yoshga moslik va rivojlantiruvchanlik – didaktik vositalar bolaning psixologik, emotsional va intellektual rivojlanish bosqichlariga moslashtirilgan bo'lishi lozim;

3Taxtaxodjayeva M. (2019). *Boshlang'ich sinf o'quvchilarining tafakkurini rivojlantirishda didaktik o'yinlarning o'рни*. – Toshkent: TDPU Ilmiy to'plami, №4, 56–62-betlar.

4Munavvarov Sh. (2020). *Ko'rgazmali vositalar asosida obrazli tafakkurni rivojlantirish metodikasi*. – "Pedagogik izlanishlar" jurnali, №2, 71–78-betlar.

5Xodjayev B. (2021). *Interaktiv muhitda ko'rgazmali vositalarni qo'llash samaradorligi*. – "Ta'lim innovatsiyalari" jurnali, №1, 44–51-betlar.

Tizimlilik va maqsadlilik – o‘yinlar va ko‘rgazmali vositalar dars maqsadlari, fan mazmuni va kompetensiyaviy yondashuv bilan uyg‘un holda tanlanishi zarur;

Harakatlilik va vizual asos – har bir metodik vosita bola faoliyatida ko‘rinadigan obrazni yaratishi, uni intellektual harakatga undashi va tafakkurini faollashtirishi shart.

Amaliy kuzatuvlarim asosida aytishim mumkinki, o‘yinlar va ko‘rgazmali vositalardan maqsadli foydalanish, ayniqsa boshlang‘ich sinfda, o‘quvchilarning ko‘rgazmali-harakatli tafakkurini rivojlantirishda hal qiluvchi omil bo‘lib xizmat qiladi. Ayniqsa, har bir o‘yin yoki vizual material muayyan ta’limiy maqsadga qaratilgan bo‘lsa, o‘quvchilarda mustaqil fikrlash, kuzatish, tahlil qilish, umumlashtirish kabi tafakkur amaliyotlari shakllanadi. Shu bois, metodik ta’minotda o‘yinlar va ko‘rgazmali vositalarni tizimli, ilmiy asoslangan va interaktiv yondashuv asosida qo‘llash zarur deb hisoblayman.

Ta’lim jarayonining zamonaviy bosqichida boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining tafakkur shakllarini rivojlantirish, xususan, ko‘rgazmali-obrazli tafakkurini shakllantirish dolzarb metodik vazifalardan biriga aylangan. Bunday tafakkur turi bolaning real predmet va hodisalarni tasvirli obrazlar orqali qabul qilish, ular ustida fikran harakat qilish, muammoli vaziyatlarni tasviriyl yechish imkoniyatini beradi. Ko‘rgazmali-obrazli tafakkur bola tafakkurining dastlabki shakli sifatida bilimlarni chuqurroq anglashga xizmat qiladi.

Mazkur tafakkur turini rivojlantirishda metodik ta’minot vositalarining sifatli, tizimli va pedagogik talablar asosida yaratilgani muhim omil hisoblanadi. Didaktik materiallarning mazmunan boyligi, vizual asoslanganligi, funksional ko‘lamdorligi o‘quvchining obrazli fikrlash mexanizmlarini faollashtiradi. Shu jihatdan, metodik ta’minotni rivojlantirish masalasi ta’lim sifati, samaradorligi va o‘quvchilarning intellektual salohiyatini shakllantirish bilan bevosita bog‘liqdir.

Xorijiy pedagogik tadqiqotlarda metodik ta’minot vositalarining rivojlanishi o‘quvchilarning intellektual faoliyatiga ko‘rsatadigan ta’siri chuqur tahlil etilgan. Xususan, amerikalik psixolog J. Bruner metodik resurslar, ayniqsa vizual

elementlarga boy bo'lsa, bu o'quvchilarda obrazli fikrlashni faollashtiradi va murakkab tushunchalarni yaxshiroq o'zlashtirish imkonini beradi, degan g'oyani ilgari suradi⁶. U o'quv jarayonida vizual materiallardan foydalanish bolalar tafakkurining uch darajasini – enaktiv (harakat asosidagi), ikonik (ko'rgazmali), va simvolik (abstrakt) tafakkurni uyg'un rivojlantirishga xizmat qilishini ta'kidlaydi.

G. Gardner esa o'zining mashhur “ko'p intellekt nazariyasi”da vizual-fazoviy intellektni mustaqil intellektual soha sifatida ajratib ko'rsatadi. U vizual-didaktik materiallar va ko'rgazmali metodlar aynan shu yo'nalishdagi intellektual faoliyatni faollashtiradi, deb hisoblaydi⁷. Gardnerning fikricha, o'quvchilar tafakkurining diversifikatsiyalashuvi o'qituvchidan turli intellekt turlariga mos metodik yondashuvlarni talab etadi.

Masalan, mashhur rus olimasi V.S. Avanesova didaktik materiallar tarkibiga vizual komponentlar (tasvirlar, grafikalar, diagrammalar)ning ko'proq kiritilishi o'quvchilarda obrazli assotsiatsiyalarni faollashtirishi, bu esa ularning mavzuni eslab qolish va qayta yaratish darajasini sezilarli darajada oshirishini ta'kidlaydi⁸. Unga ko'ra, vizual taqdimotlar o'quvchilarda tafakkurning emotsional komponentlarini faollashtirib, ularni bilimlarni ongli o'zlashtirish jarayoniga jalb qiladi.

Shuningdek, psixolog va pedagog olim L.S. Vigotskiy bola tafakkuri rivojlanishida tasviriy faoliyat – chizish, modellashtirish, qurish kabi harakatlarning o'rni beqiyosligini asoslab bergan. Uning fikricha, aynan tasviriy faoliyat orqali bola murakkab fikr strukturasi, rejalashtirish, muammoni modellashtirish va uni hal etish ko'nikmalarini egallaydi⁹. Vygotskiy bu jarayonni bolaning yaqin rivojlanish zonasiga olib kiruvchi vosita sifatida talqin etadi.

Vigotskiy fikrlariga tayangan holda, boshqa zamonaviy tadqiqotchilar ham vizual didaktik vositalarning bola miyasida verbal va noverbal informatsiyaning sintezini ta'minlashda alohida rol o'ynashini ta'kidlashadi. Bunday integratsion

⁶Bruner, J. (1966). *Toward a Theory of Instruction*. Harvard University Press.

⁷Gardner, H. (1983). *Frames of Mind: The Theory of Multiple Intelligences*. Basic Books.

⁸Avanesova, V.S. *Didaktik materiallarning vizual komponentlari va ularning ta'lim sifatiga ta'siri*. – Moskva: Pedagogika nashriyoti, 2004. – B. 64–66.

⁹Vigotskiy, L.S. *Pedagogik psixologiya*. – Moskva: Pedagogika, 1991. – B. 89–93.

yondashuv, ayniqsa boshlang'ich sinf o'quvchilari uchun didaktik ta'minotni loyihalashda muhim ahamiyat kasb etadi.

Boshqa mashhur rus psixologi L.A. Venger esa vizual o'yinlarning bolaning psixik rivojiga ko'rsatadigan ijobiy ta'sirini chuqur tahlil qilgan. U vizual-harakatli o'yinlar bolaning idrok, diqqat, xotira va tafakkur strukturasi shakllanishida muhim o'rin tutishini ta'kidlab, aynan vizual obrazlar orqali tafakkurning murakkab turlari, xususan, analitik va mantiqiy fikrlash elementlari yuzaga chiqishini ilmiy asoslab bergan. Vengerga ko'ra, ko'rgazmali o'yinlar faqat ko'ngilochar vosita emas, balki bolalarning kognitiv rivojlanishini rag'batlantiruvchi kuchli pedagogik resursdir.

Jumladan, rus olimasi V.V. Davidov o'yin faoliyatini bolaning tafakkurining ilk shakllarini rivojlantirishda asosiy metod sifatida qaraydi¹⁰. U o'yinlar orqali bolaning nazariy fikrlashga o'tishi uchun zamin yaratilishini, ayniqsa, ko'rgazmali-harakatli tafakkurning shakllanishida o'yin elementlarining hal qiluvchi ahamiyatga ega ekanligini asoslab bergan. Davidov ta'limda bolani faol sub'yekt sifatida ko'rgan holda, uning rivojida o'zaro muloqotli, vazifaga yo'naltirilgan didaktik o'yinlarning samarasini alohida ta'kidlaydi.

Shunday qilib, xorijiy va MDH tadqiqotlarining umumiy xulosasidan kelib chiqilsa, bola tafakkurini rivojlantirishda ko'rgazmali vositalar va ularning metodik jihatdan to'g'ri tashkil etilishi hal qiluvchi omil sifatida qaralmoqda. Bu esa o'z navbatida boshlang'ich sinf pedagogikasida vizual-didaktik materiallar va ko'rgazmali o'yinlarning o'rnini beqiyos ekanligini ko'rsatadi.

O'zbekistonlik olimlar ham bu borada chuqur ilmiy tadqiqotlar olib borishmoqda. Masalan, taniqli pedagog olim A'zam Xoliqov ham didaktik materiallarning o'quvchiga estetik va psixologik ta'siri haqida fikr yuritadi. U metodik ta'minotni faqat bilim manbai sifatida emas, balki bolalarning shaxsiy tajribasi va aqliy faolligini rivojlantirishga xizmat qiladigan interaktiv va reflektiv vosita sifatida talqin qiladi. Uning fikricha, o'quvchilarning bilishga bo'lgan ichki

10) Давыдов, В. В. (1996). *Развивающее обучение*. М.: Институт развития личности.

motivatsiyasi aynan ko'rgazmali-ta'lim vositalar orqali qo'zg'atiladi, bu esa obrazli fikrlash va ijodiy yondashuvni faollashtiradi¹¹.

Xoliqov o'z asarlarida shuningdek, vizual materiallarning tanlanishi va qo'llanishi pedagogik maqsadga muvofiq bo'lishi lozimligini ta'kidlab, bunday vositalarning bolaning kognitiv rivojlanish darajasi bilan uyg'unlashgan holda berilishini muhim deb hisoblaydi¹¹. Bu yondashuv metodik ta'minot vositalarining faqat texnik yordam emas, balki shaxsiylashtirilgan o'quv tajribasini yaratishda ham asosiy rol o'ynashini ko'rsatadi.

O'tkir Tolipov o'zining "Pedagogik texnologiyalar" nomli ilmiy-uslubiy qo'llanmasida metodik ta'minotga didaktik tizimning ajralmas tarkibiy qismi sifatida qaraydi. U dars jarayonida qo'llaniladigan vositalarni uch darajaga — axborot manbalari, ko'rgazmali vositalar va faoliyatga yo'naltiruvchi texnologik vositalarga ajratadi. Uning mulohazasiga ko'ra: "O'quv faoliyatini samarali tashkil etish uchun metodik ta'minot shunchaki ko'makchi emas, balki o'quvchini faol o'rganishga jalb etuvchi kuchli pedagogik mexanizmdir¹²." Ayniqsa boshlang'ich sinflarda vizual va ko'rgazmali materiallar bolaning konkret-obrazli tafakkurini rivojlantirishda beqiyos ahamiyatga ega.

Ushbu yondashuvlarni umumlashtirgan holda, metodik ta'minotni rivojlantirish natijasida o'quvchi:

- O'quvchining ko'rish, tasavvur qilish va tushunish jarayonini soddalashtiradi;
- Obraz va harakatlar orqali fikrning vizual modelini yaratadi;
- Tafakkurda strukturaviy va tizimli assotsiatsiyalarni kuchaytiradi;
- Ijodiy, konstruktiv va reflektiv fikrlash ko'nikmalarini shakllantiradi.

O'z amaliy kuzatuvlarva ilmiy tahlillar asosida aytish mumkinki, metodik ta'minot vositalari, ayniqsa, ko'rgazmali va interaktiv shakllarda taqdim etilganida, boshlang'ich sinf o'quvchilarining obrazli tafakkurini faollashtirishda samarali vosita bo'lib xizmat qiladi. Har bir vizual vosita o'quvchining real tasavvurlarini

¹¹Xoliqov A'. Ta'limda zamonaviy texnologiyalar. – Toshkent: TDPU, 2017.

¹²Tolipov O.T., Usmonboeva M. "Pedagogik texnologiyalar" – T.: Fan va texnologiya, 2006. – B. 118.

mustahkamlaydi, mavhum tushunchalarni konkretlashtiradi, fikrlashda harakatlilikni kuchaytiradi. Shu bois, metodik ta'minotni rivojlantirish – bu nafaqat pedagogik talab, balki o'quvchining fikrlash salohiyatini kengaytiruvchi strategik yo'nalish deb hisoblayman.

Zamonaviy ta'lim jarayonida o'quvchilarning bilim olish samaradorligini oshirish, mustaqil fikrlashini, ijodiy yondashuvini rivojlantirishda testlar, tarqatma materiallar, ko'rgazmali qurollar va didaktik o'yinlardan foydalanish muhim omillardan biri hisoblanadi. Bunday vositalar nafaqat ta'lim sifatini oshiradi, balki o'quvchilarda faol ishtirok, motivatsiya va muammoli vaziyatlarda to'g'ri qaror qabul qilish qobiliyatlarini ham shakllantiradi. Shuning uchun ularni tayyorlash va qo'llashda ilmiy-metodik asoslarga tayanish zarur.

Namoyish metodi o'rganilayotgan ob'yekt harakat dinamikasini ochib berishda qo'l keladi va ayni chog'da predmetning tashqi ko'rinishi va ichki tuzilishi haqida to'laqonli ma'lumot berishda keng qo'llaniladi. Tabiiy obyektlarni namoyish qilishda odatda uning tashqi ko'rinishi (shakli, hajmi, miqdori, rangi, qismlari, ularning o'zaro munosabatlari)ga e'tibor qaratiladi, so'ngra ichki tuzilishi yoki alohida xususiyatlarini o'rganishga o'tiladi. Ko'rsatish ko'p holatlarda o'rganilayotgan obyektlarning subyekti yoki chizmasi yordamida kuzatiladi. Tajribalar namoyishi esa sinf taxtasiga chizish yoki o'qituvchining maxsus jihozlar yordamida ko'rsatib berishi hisobiga amalga oshadi, bunda ushbu tajriba asosida yotuvchi tamoyillarni tushunish osonlashadi.

Predmetlar, hodisa yoki jarayonlarni tabiiy holatda namoyish qilish yanada ko'proq didaktik samara beradi, biroq, bunday namoyishni amalga oshirish har doim ham mumkin bo'lavermaydi. Shu bois o'qituvchilar tabiiy predmetlarni namoyish qilishda sun'iy muhitga murojaat qilishadi (masalan, hayvonlar bilan hayvonot bog'ida, turli o'simliklar bilan esa issiqxonalarda tanishish) yoki sun'iy ravishda yaratilgan obyektlar (maket, model, mulyaj, skelet va boshqalar)dan foydalaniladi.

Bu metod yordamida o'qituvchi o'quvchilarni mustaqil ravishda obyektlarni o'rganish, zaruriy o'lchov ishlarini olib borish, aloqadorlikni o'rnatish, shuningdek, hodisalarning mohiyatini anglab etishga bir so'z bilan aytganda faol bilish jarayoniga yo'naltirishi lozim. Namoyish samarasi ko'p jihatdan o'qituvchining bilish jarayoni mohiyatan o'quvchilarning yoshiga mos holda to'g'ri tanlanishi hamda mumkin qadar ularning diqqatini namoyish etilayotgan predmetning muhim jihatlariga yo'naltirishiga bog'liqdir.

Dars jarayonida qo'llaniladigan testlar, tarqatma materiallar va ko'rgazmali qurollar o'zining mazmuni, shakli va metodik yo'nalishi bilan o'quvchilarni bilim olishga jalb qilishi, ularning kognitiv darajasiga mos bo'lishi lozim. Testlar aniqlik, aniqlovchanlik va obyektivlik tamoyillariga asoslangan holda ishlab chiqilishi kerak. Tarqatma materiallar esa o'quvchilarning mustaqil ishlashiga, mavzuni chuqurroq o'zlashtirishiga xizmat qilishi lozim¹³.

Tasvirning samarasi ko'pincha o'qituvchi tomonidan ko'rsatuv texnologiyasi qay darajada o'zlashtirilganligiga bog'liq bo'ladi. Ko'rsatmalardan foydalanishning bilish jarayonidagi didaktik ahamiyati o'rganilayotgan ob'ekt mohiyatini to'laqonli yoritish bilan belgilanadi. Aslida illyustratsiyalar oldindan tayyorlanib, dars jarayonida zarur o'rinlarda kerakli hajmda ko'rsatiladi, aks holda ular sonining oshib ketishi o'quvchilarni hodisa mohiyatini anglashda chalg'itadi. Ayrim hollarda tarqatma materiallar (fotosurat, jadval, tabiiy obyektlar va boshqalar) yoki texnik vositalar xizmatidan foydalanishga to'g'ri keladi.

R.Clark ta'kidlashicha, vizual va amaliy vositalar o'quvchilarning mavzuni tushunish darajasini sezilarli darajada oshiradi¹⁴. P.Petkevich esa ko'rgazmali qurollar darsning samaradorligini oshirishda muhim omil ekanligini ta'kidlaydi. O'zbek pedagogi Sh. Xudoyqulov fikricha, "testlar va ko'rgazmalar o'quvchilarning nutqiy va tafakkuriy faoliyatini bir vaqtda rivojlantirishga xizmat

¹³Taxtaxodjayeva. Pedagogika. 41-42-bet.

¹⁴ Clark, R. & Yu, J. *Effective Visual Learning Tools*. San Francisco: 2021. Learning Sciences Press. – 189 b

qiladi"¹⁵. Muallif nuqtai nazariga ko'ra, bunday vositalarni tayyorlashda ularning didaktik, psixologik va estetik mezonlarga muvofiqligini ta'minlash muhimdir. Materiallar o'quvchilarni faol fikrlashga undashi, ularda tanqidiy va ijodiy yondashuvni rivojlantirishi lozim.

O'qituvchi uchun testlar va ko'rgazmali qurollarni tayyorlash

O'qituvchining kasbiy faoliyatini baholash, takomillashtirish va tahlil qilishda testlar va vizual vositalarning roli katta. Bunday vositalar orqali o'qituvchi o'zining pedagogik faoliyatini baholaydi, o'quvchilarning darsdagi ishtirokini kuzatadi va o'z yondashuvlarini qayta ko'rib chiqadi.

Angeli & Valanides tomonidan ishlab chiqilgan TPACK modeli asosida o'qituvchi materiallari bilim, texnologiya va pedagogikani uyg'unlashtirgan holda tayyorlanishi lozim. T.G. Brazhe fikricha, o'qituvchining o'z faoliyatini testlar orqali aks ettirishi innovatsion o'qituvchilik madaniyatining tarkibiy qismi hisoblanadi¹⁶. O'zbek olimi A. Turg'unov esa shunday deydi: "O'qituvchi o'z darsini tahlil qilishni o'rganmas ekan, ta'lim sifatining uzluksiz rivoji haqida gap bo'lishi mumkin emas". Muallif sifatida aytish joizki, o'qituvchilar uchun mo'ljallangan metodik vositalar reflektivlikni, ya'ni o'z ustida ishlash va tahlil qilish ko'nikmasini shakllantiradi. Bu esa uzluksiz kasbiy o'sishni ta'minlaydi.

Tarqatma materiallar dars mazmunini kengaytirish, o'quvchilarning mustaqil faoliyatini rag'batlantirish va ular bilan individual ishlashni samarali tashkil etish vositasi hisoblanadi. O'qituvchi ushbu materiallarni tayyorlashda quyidagi jihatlarga e'tibor berishi lozim:

- Materiallarning mazmuni dars maqsadiga mos bo'lishi;
- O'quvchilarning yosh va psixologik xususiyatlariga muvofiqligi;
- Materiallarning grafik va estetik jihatdan jozibadorligi.

15. Xudoyqulov, Sh. *Pedagogik innovatsiyalar asoslari*. Toshkent: 2019. O'zbekiston milliy ensiklopediyasi. – 200 b.

16. Turg'unov, A. (2018). *O'qituvchi faoliyatida tahlil metodlari*. Toshkent: Fan va texnologiya. – 176 b.

Yuqoridagi nazariy asoslardan kelib chiqib aytish mumkinki, ta'limda yuqori natijaga erishish metodik vositalarning ilmiy asoslanganligi, ularni o'z vaqtida va o'rinli qo'llash bilan chambarchas bog'liqdir. Xalqaro, MDH va milliy tajribalarni uyg'unlashtirgan holda testlar, tarqatma materiallar, ko'rgazmali qurollar va didaktik o'yinlar bilan ishlash ta'lim sifatini sezilarli darajada oshirish imkonini beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Saidov M. O'zbek maktablarining 5-sinfida ona tili ta'limi jarayonida tafakkurni rivojlantiruvchi o'quv topshiriqlari va ulardan foydalanish metodikasi. Ped.fan.nom.... diss.- T.: 2000. – 61-b. 147 b.
2. Aslonova O.P. Boshlang'ich sinf o'quvchilarida tafakkur tezligini shakllantirishning pedagogik shart-sharoitlari: ped. fan. bo'yicha PhD diss. – Qarshi, 2020. – 164 b.
3. Kalendarova Z.K. Boshlang'ich sinf o'quvchilarining fikrlash qobiliyatini rivojlantirish: ped. fan. bo'yicha PhD diss. – Toshkent, 2023. – 135 b.
4. Bahromova M.M. Kompyuter o'yinlari orqali boshlang'ich sinf o'quvchilari daraqamli tafakkur elementlarini shakllantirish metodikasi: ped. fan. bo'yicha PhD diss. – Namangan, 2023.
5. Yuldashev J.T. Boshlang'ich sinf o'quvchilari divergent tafakkurini rivojlantirish metodikasini takomillashtirish: ped. fan. bo'yicha PhD diss. – Qarshi, 2022.